

# Ingliz Va O'zbek Tillarida "Kechirim" So'rash Nutq Aktlari: O'xshash Va Farqli Jihatlar

*Sitora Turdonova*<sup>1</sup>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada lingvistik pragmatikaning shakllanishida muhim o'rin tutgan nutqiy akt nazariyasi bilan bog'liq bir qancha olimlarning nazariy qarashlari har tomonlama o'rganildi. O'zbek va ingliz tilida "kechirim" so'rash odoblari, o'rinlari, farqli va o'xshash tomonlari nazariy tomondan tahlil qilindi.

**Kalit so'zlar:** pragmatika, nutq akti, kechirim, uzr, hushmuomalalik, pushaymonlik, afsuslanish, illokutiv, perllokutiv.

**Kirish.** Avvalo tilshunoslikning pragmatika bo'limi davomidan esa nutq akti haqida tushuncha hosil qilish uchun qisqacha ma'lumotlarni ko'rib chiqamiz. Undan so'ng asosiy mavzu O'zbek va Ingliz tillarida kechirim so'rash tartiblarini o'rganamiz. So'ng ushbu ikki tilda kechirim so'rash me'zonlarining farqli va o'xshash tomonlarini tahlil qilamiz.

Pragmatika – semiotika va tilshunoslikning nutqda til belgilarining amal qilishini o'rganuvchi sohasi; boshqacha aytganda, muayyan belgilar tizimini o'zlashtirib, undan foydalanuvchi subyektlarning ayni shu belgilar tizimiga munosabatini o'rganuvchi fan tarmog'i. Nutq akti – pragmatikaning asosiy tushunchalaridan biridir. Nutq akti - bu til harakati qoidalariga muvofiq, amalga oshiriladigan maqsadli kommunikativ harakat [Epistemologiya ensiklopediyasi va falsafa ilmi 2009: 830]. Pragmatikada har qanday nutq aktini ko'rib chiqish mumkin, masalan maslahat, minnatdorchilik, tahdid, so'rov, uzr, kechirim va boshqalar. Nutq akti - bu nutqni, shu bilan birga eshitish qobiliyatini va eshitilgan narsalarni tushunishni o'z ichiga olgan ikki tomonlama jarayon.<sup>2</sup>

Nutq akti bo'lgan murojaat kategoriyasining ta'rif va izohlashdan ma'lumki, murojaat kategoriyasi ma'lumotlar almashinuvi doirasida amal qiladi va kommunikativ muloqotning og'zaki birligi hisoblanadi. Muloqot davomida nutq ishtirokchilari murojaatni ifodalashning turli usullaridan foydalangan holda nutq faoliyatini amalga oshiradilar. Nutq akti murojaat kategoriyasidan unumli foydalaniladi, jamiyat a'zolari tomonidan turlicha qabul qilingan, o'rinli bo'lgan murojaat, nutq me'yorlari talablari asosida amalga oshiriladigan, muayyan maqsadga yo'naltirilgan nutq aktidir.

Jahon tilshunosligida nutq akti va murojaat kategoriyasi muammosining tahliliga bag'ishlangan tadqiqot ishlari ko'p bo'lsa-da, ularda murojaat kategoriyasi tushunchasi har xil talqin qilingan, uning ko'rinishlari turlicha tasniflangan. Nutqiy akt nazariyasi asoschilari J. Ostin, J. Serlning qarashlariga ko'ra nutq akti muayyan mazmunni ifoda etuvchi, tilning qonun-qoidalariga asoslangan holda bayon etilgan elementar nutqiy harakatni anglatadi va bu harakatda murojaat kategoriyasining roli va ahamiyati kattadir<sup>3</sup>.

Demak, har bir nutqiy harakat so'zlovchining lingvistik ifodasiga tayanishi tushuniladi. Shuning uchun nutq akti ma'lum bir kontekstda va ma'lum bir maqsadda tinglovchiga murojaat qilish uchun so'zlovchi tomonidan tildan foydalanishni o'z ichiga oladi.

*O'zbek tilida "Kechirim" so'rash nutq akti*

<sup>1</sup>O'zbekiston Davlat Jahon Tillari universiteti, Xorijiy til va adabiyoti, 2-ingliz fakulteti, 4-bosqich talabasi

<sup>2</sup> file:///C:/Users/USER/Downloads/1-%D1%81%D0%BE%D0%BD+2020+%D0%B9%D0%B8%D0%BB\_108.pdf

<sup>3</sup> Остин Дж. Слово как действие // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 17. – М., 1986. – С. 22; Серль Дж. Классификация иллокутивных актов II новое в зарубежной лингвистике: теория ролевых актов. -М., 1986 век XVII . – С.170-194.



Nutq orqali bajariladigan ijtimoiy muloqot jarayonlari odatda nutqiy aktlar deb ataladi. Barcha madaniyatlar ijtimoiy funktsiyalarni bajarish, kommunikativ muloqotni tashkil etishda nutq aktlaridan foydalanadilar va deyarli barcha tillarda nutq aktlarini bevosita ifodalovchi ba'zi fe'llar mavjuddir [4.131], masalan: kechirim so'rash, shikoyat qilish, xushomad, iltimos qilish, va'da qilish va boshqalar. Ushbu vazifalarni bajaruvchi fe'llar o'zlari bildirayotgan nutqiy aktning lug'aviy ma'nosini o'zida mujassam etgan bo'lsada, ular har doim ham oddiy suhbatda nutqiy aktning eng ko'p uchraydigan misollaridan biri bo'lavermaydi. Masalan, og'zaki vaziyatda kechirim so'rashda so'zlashuvchilar rasmiy "Meni kechiring!" iborasidan ko'ra ko'proq "Uzr" iborasini ishlatishadi.

Noto'g'ri so'z va noto'g'ri ish qilganingizni bo'yingizga olib kechirim so'rash bilan, ulg'ayganingizda kerak bo'ladigan fazilatlarni rivojlantirayotganingizni ko'rsatasiz. «Kechirim so'rash va keyin sizga aytilgan so'zlarni tinglash uchun kamtarlik va sabr talab etiladi». (Reychel) «Meni kechiring»,— degan so'zlarni odatda o'zini haq deb bilgan va aybdorlarni izlaydigan odamlar emas, yaxshi munosabatlar muhimroq bo'lgan insonlar aytadi. Kimnidir ranjitib qo'ygach, rosa bezovtalanasiz. Aybdorlik hissi og'ir yuk. Biroq kechirim so'raganingizdan so'ng, yelkangizdan tog'ag'darilganday bo'ladi.<sup>4</sup>

Xato qilish yoki kimnidir xafa qilish oson bo'lgani bilan kechirim so'rash hamma uchun ham birday oson emas. Buning uchun so'zlovchiga kuch va matonat kerak bo'ladi. Aybiga iqror bo'lib, o'z xatosini tan olib uzr so'rasa va tinglovchi ham uni to'g'ri tushunib kechirsa uning yelkasidan tog'ag'dariladi yengil bo'ladi, aybini yuvgan hisoblaydi.

Maqsadga nisbatan va amalga oshirilish shart-sharoitlariga ko'ra nutq akti illokutiv akt sifatida belgilanadi. Tilshunos olim Yu.D. Apresyan ifodaning illokutiv vazifasini "so'zlovchining adresat ifodani qanday tushinishi borasidagi ko'rsatmasi..." sifatida atashni taklif qiladi. Ifodaning illokutiv funksiyasi tarkibida bir necha qismlar mavjud, bular: illokutiv maqsad, illokutiv maqsadga erishish usuli, illokutiv kuchning shiddati, nutq akti muvaffaqiyatining sharti. Nutqiy faoliyat nutq vositalarining qo'llanishiga nisbatan lokutiv akt sifatida belgilanadi. Oxir-oqibat, o'z natijalariga nisbatan nutq akti perllokutiv akt sifatida belgilanadi. Quyidagi o'zbek tilidagi misollar shundan dalolat beradi: Masalan, kechirim aktida murojaatning o'rni. -Xayoling qayoqda edi, a? Nega darsga quloq solmaysan? - Meni kechiring, oyi! (P.Qodirov qissalari, 36 b) Kozim o'z kechirim so'rashida, murojaat yo'naltirilgan so'zni biroz cho'zish, yalinish intonatsiyasini berish uchun gap oxiriga joylagan. Bu holatda tinglovchining xotirasida, birinchi va oxirgi so'z albatta qoldi. Shuning uchun bu holat foyda berdi, onasi Kozimni kechirdi. Kommunikativ vaziyat ma'lum bir tuzilishga ega. U quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: 1) so'zlovchi (adresant); 2) tinglovchi (adresat); 3) so'zlovchi va tinglovchining o'zaro munosabati va shunga bog'liqligi; 4) muloqot ohanglari (rasmiy-neytral-do'stona); 5) maqsadi; 6) muloqot vositasi (verbal yoki noverbal); 7) muloqot usuli (og'zaki/yozma, kontaktli/masofali); 8) muloqot joyi. Ushbu komponentlar kontekstual o'zgaruvchan hisoblanadi. Ularning har biridagi o'zgarish kommunikativ vaziyatning o'zgarishiga va buning natijasida vaziyat ishtirokchilari foydalanadigan vositalar hamda ularning kommunikativ xatti-harakatlari o'zgarishiga olib keladi. Shu bois, murojaatlarning aynan qaysi vaziyatlarda qay tarzda kelishini o'rganish ahamiyatga molikdir<sup>5</sup>

O'zbek tilida kechirim so'rash tinglovchiga uzr qanday holatda yetib borishiga bog'liq ekan, so'zlovchining ohangi, maqsadi, og'zaki yoki yozma usuldaligi, va hatto muloqot joyi ham muhim komponent hisoblanar ekan. Agar so'zlovchi o'z jumlasiga hissiy so'zlarni qo'shib, so'z ohangini mayin va cho'zib murojaat qilsa, yoki makonni oladigan bo'lsak, so'zlovchi tinglovchiga uzrini ish joyida yoki ko'cha ko'yda emas ayni asablar dam oladigan barcha muammolardan holi joyda kechirim so'rasa, tinglovchining qalbini erita oladi va kechiriming haqqoniy va samimiy ekanligini tinglovchiga anglata oladi.

<sup>4</sup> <https://www.jw.org/uz-latn/muqaddas-kitob-talimotlari/osmirlar/savollar/kechirim-sorash/>

<sup>5</sup> Qodirova M.T. Turli tizimli tillarda murojaatning kommunikativ-pragmatik aspekti (ingliz va o'zbek tillari materiallari asosida). Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ... tayyorlangan dissertatsiya. – Termiz 2021. 218- b.



Yana bir holat borki, bir kishi ketma-ket kechirim so‘rab, atrofdagilarni bezor qilib yuboradi. Unga: "Ha, bo‘ldi-da endi, kechirim so‘rashni to‘xtatarsiz!" demasangiz to‘xtamaydi ham. Bunday xatti-harakatlar o‘ziga ishonchsiz odamlar uchun ko‘proq xarakterlidir.

Shuni esda tutish kerakki, uzr so‘ragan kishi, o‘zining aybsizligiga amin bo‘lsa, so‘zlari ishonarli bo‘lolmaydi lekin ehtiyotkorlik bilan kechirim so‘rashi mumkin: "Meni kechir, ammo baribir haqman!". Bunday shakldagi uzrdan siz ham, suhbatdoshingiz ham foyda ko‘rmaysizlar va nizo faqat kuchayishi mumkin.<sup>6</sup>

Bu "psevdo-uzr so‘rash" ning yana bir misolidir. "Yaxshi, mayli, kechirasiz. Vaziyatni shunday qabul qilganingizdan afsusdaman. Bu siz uchun bunchalik muhim ekanini bilmasdim." Aybni bironing yelkasiga yuklash va o‘zini mas‘uliyatdan ozod qilishga urinish kechirim so‘ramaslikdan ko‘ra yomonroqdir. Bu so‘zlar suhbatdoshni yanada ko‘proq xafa qilishi mumkin.

"Agar" so‘zi odamni o‘z munosabatiga shubha qiladi. "Agar befarq bo‘lgan bo‘lsam, kechirasiz" yoki "Agar so‘zlarim sizni xafa qilgan bo‘lsa, kechirasiz" demaslikka harakat qiling. "Kechirasiz, agar..." bilan boshlangan deyarli har bir uzr so‘rash emas. Buni aytish yaxshiroq: "Mening gapim haqoratli edi. Uzr so‘rayman. Men befarqlikni ko‘rsatdim. Bu boshqa takrorlanmaydi."

Bundan tashqari, "kechirasiz, agar ..." so‘zlari ko‘pincha kamsituvchi sifatida qabul qilinadi: "Agar mening so‘zlarim sizni haqorat qilgan bo‘lsa, kechirasiz." Bu uzrmi yoki suhbatdoshning zaifligi va sezgirligiga ishorami? Bunday iboralar sizning "Kechirasiz" so‘zini "Menda kechirim so‘rash uchun hech narsa yo‘q" ga aylantirishi mumkin.

Eng muhimi, yarador odam pokiza qalbdan samimiy kechirim eshitishni xohlaydi. Agar siz «lekin» qo‘shsangiz, butun effekt yo‘qoladi. "Ammo" deyarli har doim uzrni anglatadi yoki hatto asl xabarni bekor qiladi. "Ammo" dan keyin aytgan so‘zlaringiz to‘liq adolatli bo‘lishi mumkin, ammo bu muhim emas. "Ammo" allaqachon kechirim so‘rashingizni soxta qilib qo‘ygan. Shunday qilib, siz: "Vaziyatning umumiy kontekstini hisobga olgan holda, mening xatti-harakatlarim (qo‘pollik, kechikish, kinoya) juda tushunarli" deyapsiz.<sup>7</sup>

Uzr so‘rayotganda meni shunday tushunganingiz uchun, meni noto‘g‘ri qabul qilganingiz uchun uzr so‘rayman, deb kechirim so‘rash aslida tinglovchidan kechirim so‘rash emas, balki hamma aybni unga yuklash demakdir. Bu esa kechirim so‘ramaslikdan ham yomonroqdir. Yoki agar xafa qilgan bo‘lsam, agar qaysidir qilgan ishim yoqmagan bo‘lsa, agar mendan ranjigan bo‘lsangiz kabi jumladan foydalanilsa, bu tinglovchining hissiyotlarini yerga urish yoki qilgan ishini tan olmaslik demakdir.

Negativ Feys (Negative face) – bosim ostida qolmaslikga bo‘lgan xohish va boshqalarni ham bosim ostida qoldirmaslik, o‘zgalarning hayotiga aralashmaslik va ularning ham aralashishiga yo‘l qo‘ymaslik, munosabatlarda erkinlikni his qilish ishtiyoqi. Bunda til bilvosita, uzr so‘rash atamaları qo‘llangan holda va ehtirom bilan ifoda etiladi. • Biror narsa so‘rashdan oldin uzr so‘rash; • Pessimistik ruhiyatni ko‘rsatish "I know this is a stupid idea..." – "bilaman bu ahmoqona fikr,..." • Ulug‘lash "yes Sir" - "Xo‘p bo‘ladi janob" • Uzr so‘rab gap boshlash "sorry to bother you, but..." - "bezovta qilayotganim uchun uzr, lekin.." • Bilvosita gapirish, fikrni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalamaslik. "I don't seem to have a pen with me" - "Menda ruchka yo‘qga o‘xshaydi"<sup>8</sup>

### *Ingliz tilida "kechirim" so‘rash nutq akti*

Ekspressiv nutq akti sifatida kechirim so‘rash so‘zlovchining fikrga nisbatan munosabatini yoki hissiyotini ifodalaydi. Leechning so‘zlariga ko‘ra (1983: 104), kechirim so‘rash - bu samimiy nutq harakati, maqsadi so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi uyg‘unlikni saqlash ijtimoiy maqsadi bilan mos keladi. Kundalik suhbatlarda kechirim so‘rash tez-tez ishlatiladi. Chunki kechirim so‘rash qarzni to‘lash va jabrlanuvchiga huquqbuzarlik natijasida yetkazilgan zararni qoplashdir. (Searle, 1969),

<sup>6</sup> <https://sof.uz/uz/post/kechirim-sorash-qobiliyati-oziga-etarlicha-ishongan-odamlarning-sifati>

<sup>7</sup> <https://uz.healthy-food-near-me.com/5-phrases-that-can-ruin-an-apology/>

<sup>8</sup> [https://www.researchgate.net/publication/348168085\\_Turdiyeva\\_Hulkar\\_Kamilovna\\_Toshkent\\_davlat\\_Alisher\\_Navoiiy\\_n\\_omidagi\\_O'zbek\\_tili\\_va\\_adabiyoti\\_universiteti\\_o'qituvchisi\\_Xorijiy\\_tillarni\\_o'qitishda\\_sotsiolingvistik\\_va\\_pragmatik\\_mas\\_alalar\\_Xushmuomalalik](https://www.researchgate.net/publication/348168085_Turdiyeva_Hulkar_Kamilovna_Toshkent_davlat_Alisher_Navoiiy_n_omidagi_O'zbek_tili_va_adabiyoti_universiteti_o'qituvchisi_Xorijiy_tillarni_o'qitishda_sotsiolingvistik_va_pragmatik_mas_alalar_Xushmuomalalik)



odamlar ijtimoiy me'yorni buzganlarida kechirim so'rab murojaat qilishadi yoki tinglovchini xafa qiladigan muayyan harakatni qilmaslik (Olshtain & Cohen, 1983: 20). Boshqacha qilib aytganda, shaxs biror harakatni (harakatni yoki nutqni) amalga oshirgan yoki buni qilmagan bo'lsa, boshqa shaxsni xafa qilgan va u javobgarlikka tortilishi mumkin bo'lgan jinoyatchi kechirim so'rashi zarur. Kechirim so'rash biron harakat yoki so'zni talab qiladi "vaziyatni to'g'ri yo'lga qo'yish" uchun mo'ljallangan. Aniqroq aytganda, odamlar ikkita asosiy holatda uzr so'rashadi: hamdardlik, uyat va aybdorlik tuyg'ulari tufayli yoki tashlab ketmaslik uchun, jazo yoki qasos kabi sabablarga ko'ra. Bundan tashqari, odamlar odatda ular bilan boshqa odamlar orasida sodir bo'lgan ko'ngil hiraliklarni tuzatish, jismoniy zarar yetkazganda yoki tahdid bilan qo'rqitganda masalan, o'g'itlab ketish yoki moddiy narsalariga zarar yetkazishda, yoki psixik zarar yetkazishda, inson huquq va erkinlariga zarar yetkazganda uzr so'raydilar.<sup>9</sup>

Chin dildan afsuslanish va kechirim so'rashdan tashqari kerakli holatda kerak so'zni tanlashni ham bilishingiz kerak. Ko'pincha biz o'z his tuyg'ularimizni ifodalash uchun inglizchada kerakli so'zlarni topa olmaymiz. Yoki suhbatdoshimiz bizni noto'g'ri tushuni mumkin va kechirish o'rniga yanada ko'ngli og'rishi mumkin. Hozir esa ingliz tilida kechirim so'rash uchun sorry, excuse, apologize va pardon, so'zlarini kerakli joylarda ishlatilishini ko'rib chiqamiz.

Ingliz tilida kechirim so'rash — kichik xatolarni tan olish

Ingliz tilida eng mashhur "kechir" — bu sorry. Sorry so'zini biz about va for predloglari bilan birga ishlatamiz. Keling to'g'ri predlog tanlashni ko'rib chiqamiz:

To be sorry about — sodir bo'lgan biror hodisadan afsuslanish.

I am sorry about your loss. — Sizning yo'qotishingizdan afsusdaman.

Agar siz biror narsa qilgan bo'lsangiz va bu uchun kechirim so'rayotgan bo'lsangiz sorry for/about smth, ishlatishingiz mumkin.

I am sorry about/for bothering you. — Bezovta qilganim uchun kechiring.

Sorry for ni biz kishiga nisbatan achinganimizda ishlatamiz.

I feel sorry for him. — Men unga achinaman.

Agar siz uzringizda samimiyligni va qattiq pushaymonlikni ifoda etmoqchi bo'lsangiz I'm sorry jumlasiga quyidagi so'zlarni qo'shishingiz mumkin: so (juda, shunchalik darajada), incredibly (judayam, ishonib bo'lmas darajada), terribly (daxshatli), really (haqiqatda), genuinely (samimiy, chin dildan).

I'm incredibly sorry for being so late. — Kech qolganim uchun judayam afsusdaman, kechiring.

Bundan tashqari siz kerakli holatda to'g'ri kechirim so'rash uchun quyidagi iboralardan foydalanishingiz mumkin:

Jumla	Tarjimasi
oh, sorry	voy, uzr
pardon (me)	kechirasiz (meni)
my bad	Mening xatoyim/aybim
my fault	Mening aybim
my mistake	Mening xatoyim
my apologies	Kechirim so'rayman
I had that wrong	Men nohaq edim
I was wrong about/on that	Tan olaman, nohaq edim
I beg your pardon. (eskirgan gap)	Kechirasiz.
I beg your pardon?! (kishi suhbatdoshi aytgan gapdan hayron bo'lganda aytiladi)	Kechirasiz?!

<sup>9</sup> Jovana Apostolovska, Silvana Neshkovska. *THE SPEECH ACT OF APOLOGIZING IN THE ENGLISH LANGUAGE* St. Kliment Ohridski University – Bitola



I'm sorry about va my bad asosan norasmiy nutqda ishlatiladi. Sms va ijtimoiy tarmoqlardagi chatlarda sorry soʻzini qisqartirib soz deb yozishadi.

Ingliz tilida kechirim soʻrash — jiddiy xatolarni tan olish Jiddiy kamchiliklar va xatoliklar bizni noqulay ahvolda qoldiradi. Shunday paytda suhbatdoshimiz bizning pushaymonligimizga ishonishi uchun judayam kerakli soʻzlarni tanlashimiz kerak.

Jumla	Tarjimasi
I would like to apologize (AmE) / apologise (BrE).	Kechirim soʻrashni istagan boʻlardim.
I owe you an apology.	Men sening oldingda kechirim soʻrashga majburman.
I want to say I'm sorry.	Men shuni aytishni istaymanki, kechir meni.
Please accept my sincerest/deepest/humble apologies.	Iltimos, mening samimiy/chuqur/chin dildan kechirimimni qabul qiling.
I can't apologize enough.	Qanchalik afsusdaligimni ifoda qila olmayman.
It wasn't my intention to be rude. Forgive me.	Men qoʻpollik qilishni istamagandim, kechir meni.
Please allow me to apologize.	Iltimos, kechirim soʻrashimga izn bering.

Ingliz tilida chuqur pushaymonni bildiruvchi jumlarlar.

Jumla	Tarjimasi
I feel apologetic for what I have done.	Men qilgan ishim uchun aybimni his qilib turibman
I feel contrite.	Men pushaymonlik his qilyapman.
I am contrite for my actions.	Men qilgan ishomdan hijolatdaman.
I am criticizing myself.	Men oʻzimni ayblayabman.
I am really most penitent for what I have done.	Men qilgan ishimdan juda afsusdaman.
I feel shame/shameful.	Men uyatdaman.
I am most shameful for my actions of yesterday.	Kechagi ish uchun juda hijolatdaman.
I embarrassed.	Men juda noqulay holdaman.

Inglizcha hushmuomilalik

Endi keling excuse me va sorry oʻrtasidagi farqni koʻrib chiqsak— koʻpchilik maktab davridan beri ularni adashtiradi.

Sorry soʻzini biz kechirim soʻrashda biror narsadan afsuslanishda ishlatamiz. Excuse me — bu hushmuomilalik bilan murojaat qilish, tarjimasi «maʼzur tutasiz», «ijozat eting», «uzr» maʼnolarida keladi.

Bundan tashqari excuse me eʼtiborni tortish uchun ham ishlatiladi:

Excuse me! Let me start my lecture. — Kechirasiz! Ijuzatingiz bilan maʼruzamni boshlasam.

Excuse meni biror narsani aytilganida eshitmay qolib qayta soʻrash uchun ham ishlatishingiz mumkin. What is your surname? – Familiyangiz? Shayhislamova. – Shayhislamova.

Quyidagi jadvalda muloyimlik uchun ishlatiladigan jummalarni koʻrib chiqamiz.

Jumla	Tarjimasi
Pardon my interrupting you.	Kechirasiz gapingizni boʻldim
I'm sorry to interrupt.	Gapingizni boʻlganim uchun uzr.
I'm sorry to cut in, but...	Aralashayotganim uchun uzr, lekin...
I'm afraid I've got bad news.	Menda yomon xabarlar deb qoʻrqaman.
We regret to tell/inform you that...	Sizga buni maʼlum qilishdan afsusdamiz...
Sorry I'm late.	Uzr, kechikdim
Sorry for keeping you waiting.	Kuttirib qoʻyganim uchun maʼzur tutasiz.



Kechirim uchun soʻzlar kamlik qilganida inglizlar gullar, shirinliklar va otkritkalar berishadi.<sup>10</sup>

Ushbu tadqiqot yuzasidan oʻtkazilgan adabiyotlarni koʻrib chiqish asosida xulosa qilish mumkinki, ingliz tili foydalanuvchilari kechirim soʻrash strategiyalarining keng doirasiga ega uzr soʻrash, afsuslanish, oʻzini kamtar tutish, yordam taklifi, tushuntirishlar, masʼuliyatni oʻz zimmasiga olish va boshqalar. Quyida kechirimning qaysi oʻrinlarda ishlatilishini koʻrib chiqamiz.

Inglizlar “I blame myself” men oʻzimni ayblayman, hamma ayb menda kabi iboralar orqali meni kechiring demoqchi boʻladilar. Agar ular meni kechiring deyishsa bu ularning qilgan ishlaridan pushaymon ekanliklarini va afsuslanishlarini anglatadi.

Kechirimning yana bir maʼnosi inglizlarda biror qiyin vaziyatga tushib qolgan shaxsni koʻrganlarida yoki eshitganlarida ularga oʻzlari qodir boʻlgan ishga oʻz yordamlarini taklif qilish chun ishlatiladi.

Yoki uzoq oʻtmishda qilgan ogʻir aybi uchun, yaʼni haqoratomus soʻzlar aytish orqali yoki koʻnglini ogʻritadigan biron nojoya gap bilan tinglovchini azoblagani uchun kechirim soʻrashadi.

## Xulosa

Barcha tillarda har bir soʻzning oʻz maʼnosi, ishlatilish oʻrni, vaqti va normasi bor. Hamma tilda ham mulozamat, minnatdorchilik, shukronalik, uzr soʻrash kabi soʻzlarga duch kelamiz. Oʻz ona tilimizda kechirim soʻrash baʼzilar uchun qiyinchilik tugʻdirishi mumkin, masalan, aybdorlik hissini tuyishadi-yu ammo xatolarini tan olib bosh egib kechirim soʻray olishmaydi. Bunga ularning jasorati yetmaydi. Baʼzida shunday holatlar boʻladiki, uzrni siz oʻz tilingizda emas balki oʻzga tilda soʻrashingizga toʻgʻri kelib qoladi. Tillarning oʻxshash tomonlari boʻlgani kabi ularning farqli tomonlari ham mavjud. Siz soʻramoqchi boʻlayotgan uzr turi boshqa tilda boshqacha tushinilishi ham mumkin. Ushbu izlanish oʻzbek va ingliz tilidagi kechirimni koʻrib oʻrganib tahlil qilib chiqdi. Va xulosa shulardan iboratki:

Har ikki tilda ham uzr deyarli xato qilib qoʻyib aybini yuvish uchun soʻraladi; har ikki tilde ham uzr kimnidir chalgʻitib biron narsa soʻrashdan avval ishlatiladi;

Har ikki tilda ham uzr kimnidir koʻnglini ogʻritib, ozor berib pushaymon boʻlib, aybdorlik his qilib soʻraladi;

Har ikki tilda ham uzr soʻralayotganda ovoz ohanggiga eʼtibor berilib, bazor choʻzib talaffuz qilinadi;

Har ikki tilda ham uzr soʻrash vaqti, joyi, va holatiga eʼtobor qaratiladi.

Barcha tillarning asosi, vazifasi bir xil boʻlgani bilan, ularning boʻlimlari, qismlari, yoʻnalishlari va bir qancha komponentlari bir-biridan tubdan farq qiladi. Hatto bir tildagi bir soʻz boshqa tilda umuman boshqa bir maʼno kashf etadi. Uzr soʻrashning ushbu ikki til orasidagi farqli koʻrinishlari:

Oʻzbek tilida “mayli meni kechir” kabi quruq kechirimni ingliz tilida uchratmaymiz;

Ingliz tilida biron jumlaning eshitmay qolganda ham uzr soʻraladi, ammo oʻzbek tilida bunday holatlarga duch kelmaymiz;

Oʻzbek tilida haddan ziyod kechirim soʻzlarini ishlatish, uzr soʻrash holatlari kuzatiladi, lekin ingliz tilida bu kabi tilyogʻlamliklar kuzatilmaydi;

Inglizlarda uzr yoki kechirim soʻrash oʻrniga biron sovgʻa yoki gul berishadi, bu holatni oʻzbeklarda qoʻllasak koʻp hollarda bu hushomadga yoʻyiladi;

Oʻzbek tilida baʼzi hollarda soʻzlovchi oʻzini kechirim soʻrashga majbur emasdek, hech qanday nojoʻya harakat qilmagandek, barchasini tinglovchi notoʻgʻri talqin qilgandek qilib koʻrsatiladi.

Bu kabi oʻxshash va farqli tomonlarini koʻplab izlanishlar va tahlillar natijasi orqali oʻrganishimiz mumkin. Ushbu maqolada oʻzbek va ingliz tilidagi “uzr soʻrash” nigina oʻxshash va farqli jihatlarini koʻrib chiqdik xolos.

<sup>10</sup> <https://rgn.uz/2018/09/17/kechirasiz-ingliz-tilida-qanday-qilib-togri-kechirim-soraladi/>



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Apostolovska, J., & Neshkovska, S. (2021). THE SPEECH ACT OF APOLOGIZING IN THE ENGLISH LANGUAGE. *Teacher-International Journal of Education*, 22, 42-50.
2. <https://rgn.uz/2018/09/17/kechirasiz-ingliz-tilida-qanday-qilib-togri-kechirim-soraladi/>
3. Kamariddinova, M. E. (2024). DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE IN FOREIGN LANGUAGE EDUCATION. *Western European Journal of Linguistics and Education*, 2(4), 66-70.
4. Karimova, S., & Musojonova, M. (2022). INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA FRAZEOLOGIK INTENSIFIKATORLARNING FUNKSIONALPRAGMATIK TADQIQI. *Science and innovation*, 1(B7), 1355-1359.
5. Leech, G. N. (1983). *Principles of Pragmatics*. London and New York: Longman.
6. Murotova, D. (2022). TURLI TIZIMLI TILLARDA UZR SO'RASHNI IFODALOVCHI FONETIK, LEKSIK VA MORFOLOGIK TIL VOSITALARI. *Science and innovation*, 1(B8), 260-262.
7. Ostonova, R. G. (2023). TA'LIM SOHASIDA ONA TILI VA ADABIYOT TA 'LIMNING MAQSADI VA VAZIFALARI, O 'QUVCHILARNING TAYYORGARLIK DARAJASIGA QO 'YILADIGAN ZARURIY MINIMAL TALABLAR. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 3(1), 7-10.
8. Qodirova M.T. Turli tizimli tillarda murojaatning kommunikativ-pragmatik aspekti (ingliz va o'zbek tillari materiallari asosida). Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori ... tayyorlangan dissertatsiya. – Termiz 2021. 218- b.
9. Rafailovna, S. L. (2020). THE ROLE OF ASSESSMENT IN LANGUAGE TEACHING. "ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМДА РАЈАМЛИ ТИЗИМЛАРНИ ЎЎЛАШ: ФИЛОЛОГИЯ ВА ПЕДАГОГИКА СОЎАСИДА ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАР ВА РИВОЖЛАНИШ ОМИЛЛАРИ, 138.
10. Shakhnoza, I., Zamira, S., & Asqar, O. (2024). IMPROVING LISTENING SKILLS OF ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS THROUGH MUSIC AND SONGS. *Western European Journal of Linguistics and Education*, 2(4), 61-65.
11. Uzakova, L. (2021). O'ZBEK VA INGLIZ NUTQIY ETIKETLARINING QIYOSIY TADQIQI. *Scientific progress*, 1(3), 213-216.
12. Остин Дж. Слово как действие // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 17. – М., 1986. – С. 22; Серль Дж. Классификация иллокутивных актов II новое в зарубежной лингвистике: теория ролевых актов. -М., 1986 век XVII . – С.170-194.

